
„Ruhlar isyoni" dostonida ijodkor va millat ozodligi muammosining badiiy-falsafiy talqini mavzusida ochiq dars o'tkazildi

SamDCHTI akademik litseyida turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ochiq dars va mashg'ulotlarning muntazam ravishda o'tkazib kelinishi o'quvchilarning bilim ko'nikmalarini yanada ilg'or va samarali darajada rivojlantiradi.

Xususan **30-noyabr kuni** SamDCHTI akademik litseyi ona tili-adabiyot fan o'qituvchisi **Kuvatova Nafisa Zayerjonova** boshchiligida **206-guruh** o'quvchilari ishtirokida „**Ruhlar isyoni**" dostonida ijodkor va millat ozodligi muammosining badiiy-falsafiy talqini mavzusida **ochiq dars o'tkazildi.**

Fan doirasida o'tkazilgan ushbu ochiq darsda **"Aqliy hujum", "Kuz daraxti", "Karta metodi", "Mushoira", "QMT", "Pinbord", "Tushunchalar tahlili"** kabi metod va interfaol o'yinlardan foydalanilib **"Ruhlar isyoni" dostonidan "Abadiyot haqida rivoyat" sahnalashtirildi.**













SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati